




O‘ZBEKISTON VA IORDANIYA O‘RTASIDAGI AN‘ANAVIY DO‘STLIK VA KO‘P QIRRALI AMALIY HAMKORLIK MUNOSABATLARI MUSTAHKAMLANMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn 25-26-avgust kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ldi.



Iordaniya Yaqin Sharq mintaqasida joylashgan, 12 ta hududdan iborat davlat. 11,7 million aholi istiqomat qiladi. Jahon bankining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Iordaniyaning yalpi ichki mahsuloti 53,3 milliard dollarni, aholi jon boshiga 4700 dollarni tashkil qilgan. Tashqi savdo aylanmasi 37,1 milliard dollardan oshadi. Iordaniya asosan fosfatlar, tayyor kiyim-kechaklar, to'qimachilik va kimyo sanoati mahsulotlari eksport qiladi. Fosfatlar bo'yicha jahondagi yetakchi eksportyorlardan biri, bu minerallar, asosan, o'g'it va kimyoviy moddalar sifatida eksport qilinadi. Iordaniyaning to'qimachilik sanoati mahsulotlarining katta qismi AQSH va Yevropa Ittifoqiga yo'naltirilgan.

Iordaniya iqtisodiyoti asosan xizmatlar sohasiga asoslangan bo'lib, yalpi ichki mahsulotining 75,5 foizini tashkil etadi. Sanoatning hisssasi — 19,6 foiz, qishloq xo'jaligining esa — 4,9 foiz.

Turizm milliy daromadning muhim qismi hisoblanadi. Iordaniyada tabiiy resurslar, xususan, neft va gaz zaxiralari kam. Davlat fosfat, kaliydan tayyor mahsulotlar va kimyoviy moddalar eksportiga tayanadi.

Xalqaro moliyaviy yordam Iordaniya iqtisodiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mamlakat Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va Ko'rfaz mamlakatlari kabi donorlardan yordam oladi. Ushbu hamkorliklar, shuningdek, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha oliy borilgan sa'y-harakatlar bilan birga Iordaniyaga qiyin geosiyosiy va iqtisodiy

sharoitda barqarorlikni saqlab qolishga yordam bermoqda.

Iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha jahon reytingida Iordaniya 69-o'rin, mintaqaviy reytingda esa 6-o'rinni egallaydi. Ishbilarmonlik muhiti bo'yicha jahon reytingida Podshohlik 65-o'rinda turadi.

Iordaniya dunyodagi eng yirik fosfat ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi va bu borada TOP-5 talikka kiradi, uning tasdiqlangan zaxiralari 1,5 milliard tonnadan oshadi. 2024-yilda barcha konlarda quruq fosfatning umumiy ishlab chiqarish hajmi 11,5 million tonnaga yetgan.

O'zbekiston 1993-yilda Iordaniya bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan va hamkorlik qilib keladi. Davlatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2024-yilda qariyb 4,6 million dollarni tashkil etdi va joriy yilning birinchi yarmida esa bu ko'rsatkich 4,3 million dollarga yetdi. Tomonlar tovar ayirboshlash hajmini bir necha karra oshirish imkoniyatiga ega va bundan samarali foydalanilmoqda.

25-avgust kuni Samarqand shahri aeroportida Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kutib oldi.

Ikki davlat rahbarlari Samarqand shahrining ulug'vor tarixiy obidalarini, muqaddas qadamlarini ziyorat qildi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 26-avgust kuni Samarqand shahridagi Kongress markazida o'tkazildi.

Dastlab Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynni rasmiy kutib olish marosimi bo'lib o'tdi.

Kongress markazi binosi oldidagi maydonda faxriy qorovul saf tordidi. O'zbekiston Prezidenti oliy martabali mehmonni samimiy qarshi olib, shohsupaga taklif qildi.

Harbiy orkestr ikki mamlakat davlat madhiyalarini ijro etdi.

O'zbekiston Prezidenti va Iordaniya Podshohi faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiya a'zolarini qutladilar. Muzokaralar oldidan davlat tashrifi dasturi doirasida Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko'rgazmasi bilan tanishdi.

Kongress markazida xorijiy bozorlar uchun xalqaro standartlarga javob beradigan keng turdagi yuqori sifatli mahsulotlar ko'rgazmaga qo'yilgan.

Oliy martabali mehmonga tog'-kon, farmatsevtika, kimyo, to'qimachilik, zargarlik sanoati, qishloq xo'jaligi va axborot texnologiyalari kabi sohalardagi texnologik bosqichlar, ishlab chiqarish quvvatlari, innovatsiyalar va qo'llanilayotgan eng ilg'or uskunalar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Ekspozitsiyadan yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor sanoat mahsulotlari namunalari: dori vositalari, tibbiy asbob-uskunalar, mineral o'g'itlar, to'qimachilik, trikotaj va zargarlik buyumlari, hunarmandchilik mahsulotlari, IT yechimlari va boshqalar o'rin olgan.

Iordaniya yetakchisi O'zbekiston mahsulotlari va sanoat salohiyatini yuksak baholadi. Davlat rahbarlari yetakchi korxonalar kooperatsiyasini kengaytirish, o'zaro tajriba almashish va texnologiyalar transferini amalga oshirish muhimligini ta'kidladilar.

Shundan so'ng Kongress markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynni muzokaralari bo'lib o'tdi.

Siyosiy muloqot va madaniy-gumanitar almashinuvni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv avvalida Iordaniya Podshohi davlatimiz rahbariga tashrif bilan kelishga taklif qilgan hamda Iordaniya delegatsiyasiga ko'rsatilayotgan iliq va samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi.

Diplomatik munosabatlar tarixidagi ilk oliy darajadagi tashrif ikki tomonlama hamkorlikda yangi bosqichni boshlab berishi va uni keng qamrovli sheriklik darajasiga ko'tarishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

O'zbekiston va Iordaniya o'rtasidagi an'anaviy do'stlik va ko'p qirrali amaliy hamkorlik munosabatlari mustahkamlanib borayotgani, ikki mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyalari o'xshashligi qayd etildi.

Yetakchilar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida samarali hamkorlik olib borilayotganini mamnuniyat bilan qayd etib, tashabbuslarni o'zaro qo'llab-quvvatlashni faol davom ettirish zarurligini ta'kidladilar.

Davlatlar tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi konstruktiv muloqotni va idoralar o'rtasidagi yaqin aloqalarni davom ettirish zarurligi qayd etildi.

Ikki tomonlama savdo ko'rsatkichlarini karrasiga oshirish, ko'p shma investitsiya loyihalari va savdo shartnomalarini amalga oshirishga tayyorlik tasdiqlandi.

Kimyo va to'qimachilik sanoati, "aqli" qishloq xo'jaligi, geologiya, sog'liqni saqlash va farmatsevtika, turizm va boshqa tarmoqlarda kooperatsiyani kengaytirishga kelishib olindi.

Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashini ishga tushirib, joriy yil yakunigacha ularning ilk yig'ilishlarini o'tkazish taklifi bildirildi. Ikki mamlakatning yetakchi kompaniya va ishlab chiqaruvchilari ishtirokida O'zbekiston — Iordaniya biznes forumining o'tkazilishi ishbiarmon doiralari o'rtasida uzoq muddatli sheriklik aloqalarini o'rnatishga xizmat qiladi.

Madaniy, ta'lim va turizm sohalaridagi almashinuvlarni, shu jumladan, ko'p shma madaniyat haftaliklari, konsertlar, ekspozitsiya va ko'rgazmalar o'tkazish orqali yanada faollashtirishga tayyorlik bildirildi.

O'zbekiston va Iordaniya xalqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari uzoq tarixga ega bo'lib, bugungi kunda yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, umumiy ma'naviy

merosni birgalikda o'rganish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, ikki mamlakat islomshunoslik markazlari va institutlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Tomonlar bag'rikeng va ma'rifati islom g'oyalarni birgalikda ilgari surish zarurligi haqida yakdil fikrga keldilar. Davlatimiz rahbari Podshoh Abdulla II tomonidan bundan o'n yil oldin boshlangan "Aqaba jarayoni" tashabbusini yuqori baholab, ushbu muhim tashabbusning navbatdagi yig'ilishlaridan birini Samarqand shahrida o'tkazishni taklif etdi.

Ikki mamlakat poytaxtlari o'rtasida muntazam aviaqatnovlarning yo'lga qo'yilishi va vizasiz rejim joriy qilinishi ishbiarmonlik aloqalari va o'zaro sayyohlar oqimining ko'payishiga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Muzokaralar yakunida Podshoh Abdulla II ibn al-Husayn davlatimiz rahbarini Iordaniyaga tashrif bilan borishga taklif etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn Sheriklik munosabatlarini mustahkamlash to'g'risida qo'shma bayonot qabul qildilar.

Umuman, tashrif doirasida 15 ta ikki tomonlama hujjat imzolandi, jumladan:

- ekstraditsiya to'g'risida bitim;
- investitsiyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risida bitim;
- qo'shma komissiya tuzish to'g'risida bitim;
- viza talablarini bekor qilish to'g'risida bitim;
- oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohasida hamkorlik to'g'risida bitim;
- turizm sohasida hamkorlik to'g'risida bitim;
- havo qatnovi to'g'risidagi hukumatlararo bitimga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida bayonnom;
- tovarlar va transport vositalari harakati to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni onlayn almashish to'g'risida bayonnom;
- qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlik to'g'risida bitim;
- o'simliklar karantini va himoyasi sohasida hamkorlik to'g'risida bitim;
- veterinariya sohasida hamkorlik to'g'risida bitim;
- standartlashtirish, metrologiya va muvofiqligni baholash sohasida memorandum;
- din ishlari bo'yicha anglashuv to'g'risida idoralararo memorandumlar;
- Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynni davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi.

Iordaniya Podshohining davlat tashrifi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Iordaniyaning "An-Nahda" ("Renessans") ordeni bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Ushbu mamlakatning oliy mukofotini davlatimiz rahbariga Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn shaxsan topshirdi.

— Ushbu mukofotni ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish borasidagi umumiy sa'y-harakatlarimizning munosib e'tirofi, shuningdek, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan O'zbekiston xalqiga do'stona munosabat va hurmat ifodasi sifatida katta mamnuniyat bilan qabul qilaman, — dedi Prezidentimiz.

Iordaniya Podshohining O'zbekistonga tarixiy tashrifi va samarali muzokaralar natijasida mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar yangi sheriklik darajasiga ko'tarildi.

Yetakchilar siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishga kelishib oldilar.

Davlatimiz rahbari Podshoh Abdulla II ibn al-Husayn Iordaniyaning jadal rivojlanishiga, mamlakatning tinchliksevar tashqi siyosatini amalga oshirishga, xalqaro hamjamiyatdagi nufuzi va ta'siri yuksalishiga qo'shgan hissasini alohida qayd etdi.

Prezidentimiz ushbu yuksak mukofot O'zbekiston va Iordaniya xalqlari o'rtasidagi mustahkam do'stlik ramzi sifatida munosib o'rin egallashini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari so'zining yakunida Podshoh Abdulla II ibn al-Husaynga mukofot uchun yana bir bor minnatdorlik bildirib, Iordaniya xalqiga tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi.

O'zbekiston — Iordaniya sammiti yakunida birgalikda daraxt ekish marosimi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn Samarqanddagi Kongress markazi bog'ida eman ekkilar.

Marosim O'zbekiston — Iordaniya munosabatlarida yangi davr boshlanayotgani hamda yetakchilarning xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga intilishi ramzi bo'ldi.

Tadbirlar yakunlangach, Samarqand xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kuzatib qo'ydi.

Aytish mumkinki, Prezidentimiz taklifiga binoan O'zbekiston — Iordaniya diplomatik munosabatlari tarixida ilk bor Iordaniya Podshohining yurtimizga amalga oshirgan davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlikda yangi bosqichni boshlab bergani va uni keng qamrovli sheriklik darajasiga ko'tarishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli bo'ldi. Ikki kun davomida davlatlar yetakchilarining samimiy va do'stona muloqotlari, samarali muzokaralari natijasida hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor va istiqbolli yo'nalishlari belgilandi hamda ularni kengaytirib borishga kelishib olindi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
G'olib HASANOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA maxsus muxbirlari**

2025-YIL O‘ZBEKISTON VA UNESCO UCHUN TARIXIY YIL BO‘LADI

Tashkilot bosh konferensiyasi 1985-yildan buyon birinchi marta Parijdan tashqarida – Samarqandda o‘tkaziladi

UNESCO bosh direktorining birinchi o‘rinbosari Sin Syuy O‘zbekiston davlat mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz xalqiga o‘zining bayram qutlovini yo‘lladi:

— 1-sentabr — O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni munosabati bilan UNESCO bosh direktori nomidan O'zbekiston xalqiga samimiy tabriklar va ezu tilaklarni yo'llayman. Bu yil O'zbekiston uchun ham, UNESCO uchun ham tarixiy yil bo'ladi, chunki tashkilot bosh konferensiyasi 1985-yildan beri birinchi marta Parijdan tashqarida o'tkaziladi.

Ushbu muhim tadbirni Samarqand shahrida o'tkazish to'g'risidagi qaror O'zbekistonning madaniy diplomatiya, ta'lim sohasidagi islohotlar va global hamkorlikdagi yetakchi roli ning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, Bosh konferensiyaning 43-sessiyasi oldidan shu yil



27-28-oktabr kunlari Samarqand shahrida UNESCOning 14-Yoshlar forumini o'tkazish taklifi uchun O'zbekistondan minnatdormiz. Ushbu forum iqlim o'zgarishining ijtimoiy oqibatlarini va iqlimga adolatli o'tish

zarurligini muhokama qilish uchun muhim platforma bo'lib, ayniqsa, yoshlarga e'tibor beradi.

O'zbekistonning UNESCO mis-siyasiga sodiqligi Prezident Shavkat Mirziyoyev va UNESCO bosh direktori o'rtasida 2025-yil 12-mart kuni Parijda bo'lib o'tgan uchrashuvda O'zbekistonning tinchlik, bilim va barqaror rivojlanish tarafdori ekanligi yana bir bor tasdiqlandi.

Shuningdek, hukumatimiz tashabbusi bilan Rubob yasash va chalish san'atining 2024-yil oxirida UNESCO Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritilgani bilan tabriklashga ijozat bergaysiz.

UNESCO O'zbekistonning doimiy qo'llab-quvvatlashini yuksak qadrlaydi va kelgusida yanada faol hamda samarali hamkorlikka umid qiladi.

**“Dunyo” AA
Parij shahri**



IORDANIYA PODSHOHINING O‘ZBEKISTONGA TASHRIFI

Markaziy Osiyo – Yaqin Sharq aloqalari rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi

Xorijiy ekspertlar oliy darajadagi birinchi O‘zbekiston — Iordaniya sammiti yakunlari haqida

Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn 25-26-avgust kunlari davlat tashrifi bilan O‘zbekistonda bo‘ldi va bu ikki tomonlama munosabatlarda yangi bosqich hisoblanadi.

Tashrifning asosiy voqealari bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasining muhim diplomatik markaziga aylanib borayotgan qadimiy Samarqandda bo'lib o'tdi. Shu munosabat bilan tashrif dasturidan shahardagi qadimiy me'moriy obidalar — Shohi Zinda majmuasi, Amir Temur maqbarasi va Registon maydonini ziyorat qilish o'rin oldi.

Davomi 2-betda

Islohotlar samarasi

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YETAKCHI KUCHI

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 34 yilligi yurtimiz bo'ylab keng nishonlanayotgan mana shu farahbaxsh kunlarda jonajon Vatanimiz shonli tarixining eng muhim burilish nuqtasida. Zero, bugungi kunga kelib, yangi O'zbekiston degan tushuncha endi faqat siyosiy irodaning ifodasi bo'libgina qolmay, u bag'rikeng xalqimiz, salohiyatli, mehnatcevar, elparvar odamlarimiz bilan birga shakllanayotgan, adolat, tenglik va taraqqiyot tamoyillariga asoslangan butun boshli ijtimoiy-falsafiy harakatga aylandi. Boshqacha aytganda, yangi O'zbekiston g'oyasi bunyodkor, vatanparvar, taraqqiyparvar yurtdoshlarimiz xohishirodasi va birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan real haqiqatga aylanmoqda. Bu harakatning markazidan esa inson, uning qadri, ayniqsa, o'z salohiyatini to'laqonli namoyon etishga intilayotgan, jamiyatda munosib o'rin egallash istagidagi ma'n'an uyg'oq, ma'rifatli xotin-qizlarimiz o'rin olgan.

Ayni paytda xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi faol ishtiroki dolzarb masalalardan biriga aylangan. Zero, har qanday taraqqiyot asosi, eng avvalo, oilaning mustahkamligi, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta'minlashdan boshlanadi. Shu bois, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida ham aynan shu insoniy maqsadlar mujassam.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi uchun zarur huquqiy va institutsional mexanizmlar yaratildi. Xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirish, shuningdek, erkaklar bilan teng huquq va imkoniyatlarni kafolatlash — bugunning ustuvor vazifalaridan.

Davomi 3-betda

IORDANIYA PODSHOHINING O‘ZBEKISTONGA TASHRIFI

Markaziy Osiyo – Yaqin Sharq aloqalari rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi

Boshlanishi 1-betda

Madaniy dasturdan tashqari O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyatiga e’tibor qaratildi. Ikki davlat rahbarlari mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan eksportbop mahsulotlarni ko‘rgazmasini borib ko‘rdi. Iordaniya Podshohi O‘zbekistonning sanoat imkoniyatlarini yuqori baholab, ikki mamlakat yetakchi korxonalari o‘rtasida texnologiyalar almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirish muhimligini ta’kidladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Iordaniyaning “An-Nahda” (“Renessans”) ordeni bilan taqdirlanishi tashrifning kulminatsion nuqtasi bo‘ldi. Mustahkam do‘stlik va chuqur ishonch ramzi sifatida ushbu faxriy ordenni shaxsan Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-

Antonio ALONSO, San-Pablo universiteti professori, Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha mutaxassis (Ispaniya):

— Iordaniya Podshohining O‘zbekistonga tarixiy tashrifi va Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralar Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqaro hamkorlikni kengaytirish, O‘zbekistonning jahon miqyosidagi mavqeiini mustahkamlashga qaratilgan samarali tashqi siyosatining yorqin tasdiqi bo‘ldi.

O‘zbekiston yetakchisi rahnamoligida konstruktiv, ochiq va ishonchli muloqot ta’minlandi, uning natijasida iqtisodiyot va sarmoyadan tortib, fan, ta’lim va turizmga barcha bo‘lgan asosiy yo‘nalishlarni qamrab olgan 15 ta ikki tomonlama hujjat imzolandi. Bu bor o‘rtasidagi munosabatlarni ta’minlash va rivojlantirish boshqarilgan tarixida ilk davr vizita tartibini bekor qilish va muntazam aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha



kelishuvga erishildi, bu esa ishbiarmonlik va madaniy aloqalar uchun yangi uqlarni ochadi.

Investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi bitim, shuningdek, amaliy hamkorlikning kuchli mexanizmlariga aylanadigan qo‘shma komissiya va ishbiarmonlar kengashini tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, tomonlar sanoat, qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika, geologiya, sog‘liqni saqlash va boshqa

sohalardagi loyihalarni faol amalga oshirishga tayyor ekanini alohida ta’kidlagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev nafaqat iqtisodiy, balki gumanitar sohaga ham e’tibor qaratib, madaniy-ma’rifiy va ilmiy almashinuvi, islomshunoslik sohasidagi hamkorlikni faollashtirish lozimligini aytib o‘tdi.

Iordaniya Podshohining “Aqaba jarayoni” tashabbusini yuksak baholagan O‘zbekiston Prezidenti uning yig‘ilishlaridan birini Samarqandda o‘tkazishni taklif qildi. Bu esa bag‘rikenglik va ma’rifiy islom g‘oyalarni targ‘ib qilishda O‘zbekistonning roli tobora ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Shu tariqa Prezident Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko‘zlagan diplomatiyasi va rahbarligi tufayli O‘zbekiston Iordaniya bilan har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini shakllantirish, uning xalqaro nufuzini oshirish va uzoq muddatli hamkorlik uchun mustahkam zamin yaratish yo‘lida muhim qadam tashladi.

“O‘zbekiston va Iordaniya islomiy sivilizatsiyaning muhim markazlari sifatida xalqaro maydonda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Tarixan Toshkent islom ilm-fani, madaniyati va ta’limining yirik markazi bo‘lib kelgan, buning yaqqol dalillari sifatida Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Ibn Sino kabi buyuk olimlarning nomlarini keltirish mumkin.

Pan DAVEY, Shanxay Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlarini o‘rganish markazi professori (Xitoy):

— O‘zbekiston tashqi siyosatida ochiqlik va ko‘p yo‘nalishlilik strategiyasini izchil amalga oshirmoqda. So‘nggi yillarda rasmiy Toshkent Yaqin Sharq davlatlari bilan samarali hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘zbekistonning Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti hamda boshqa xalqaro platformalardagi faol ishtiroki ikki tomonlama va ko‘p tomonlama aloqalarni mustahkamlash uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qilaypti. Ushbu jarayonlar O‘zbekiston va Iordaniya o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga zamin yaratayotir.

O‘zbekiston va Iordaniya islomiy sivilizatsiyaning muhim markazlari sifatida

xalqaro maydonda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Tarixan Toshkent islom ilm-fani, madaniyati va ta’limining yirik markazi bo‘lib kelgan, buning yaqqol dalillari sifatida Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Ibn Sino kabi buyuk olimlarning nomlarini keltirish mumkin.

Amman esa, o‘z navbatida, muqaddas joylarning himoyachisi va dinlararo muloqot markazi sifatida tanilib, an‘anal bilan zamonaviy texnologiyalar va iqtisodiy taraqqiyotning uyg‘unligini ta’minlashda muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Ikkala davlat ham Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqalarida barqarorlik va rivojlanish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynamoqda. Ularning siyosiy, madaniy va iqtisodiy hamkorligi mintaqaviy integratsiya va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston va Iordaniya o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik jadal sur‘atlarda rivojlanmoqda. Iordaniya farmatsevtika va kimyo sanoati, to‘qimachilik, shuningdek, o‘g‘itlar va qurilish materiallari bo‘yicha

kuchli salohiyatga ega. Mamlakat fosfat va kaliy xaziralari bilan mashhur bo‘lib, ularning eksporti iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoyda Iordaniya Podshohining O‘zbekistonga birinchi rasmiy tashrifi tarixiy voqea sifatida qabul qilinib, ikki tomonlama hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilgan yuksak baholannmoqda. Ikki davlat rahbarlari ishtirokida o‘tkazilgan sanoat ko‘rgazmasi, investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish bo‘yicha kelishuvlar, vizasiz rejimni joriy etish, turizm va qishloq xo‘jaligi sohalarida hamkorlikni mustahkamlashga doir bitimlar ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va turistlar oqimini oshirish uchun katta imkoniyatlarni ochmoqda.

Qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik sanoati, energetika kabi sohalardagi hamkorlik alohida e’tiborga loyiq. Iordaniya kompaniyalari O‘zbekistondagi infratuzilma loyihalarida ishtirok etishga faol qiziqish bildirmoqda, bu esa mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning yangi istiqbollarini ochmoqda.

javobini topmoqda, bu esa Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq o‘rtasida mintaqalararo hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Iordaniya O‘zbekiston bilan savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashga katta qiziqish bildiraypti. Bu ikki davlat savdo-sanoat palatalari o‘rtasida yaqinda imzolangan o‘zaro anglashuv memorandumini bilan ham tasdiqlandi. Har ikki davlat boy tarixiy merosga ega. O‘zbekiston qadimda Buyuk ipak yo‘lining markazi va islom sivilizatsiyasi ravnaq topgan maskan bo‘lgan bo‘lsa, Iordaniya UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan qadimiy savdo yo‘llari va arxeologik yodgorliklarning saqlovchisi hisoblanadi. Ushbu tarixiy meros O‘zbekiston bilan arab davlatlari, jumladan, Iordaniya o‘rtasidagi zamonaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Tashrif davomida imzolangan muhim hujjatlar to‘plami muntazam muloqot, siyosiy huquqiy pozitsiyalarni muvofiqlashtirish, investorlar uchun huquqiy kafolatlar yaratish, yangi savdo kanallarini ochish, qishloq xo‘jaligi va logistika sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashda institutsional asos bo‘lmoqda. Mazkur huquqiy hujjatlar, shuningdek, O‘zbekiston — Iordaniya munosabatlarini uzoq muddatli strategik rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tashrif doirasida O‘zbekiston Prezidentini Iordaniyaning “An-Nahda” ordeni bilan taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. Bu Iordaniya tomonidan ko‘p qirrali sheriklikni kengaytirishga qaratilgan sa‘y-harakatlarga hurmat va e’tirofdan dalolat beradi.

O‘ylaymanki, Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynni O‘zbekistonga tashrif Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning yangi modelini shakllantirishga muhim bosqich bo‘ldi. Bunda O‘zbekiston va Iordaniya qo‘llab-quvvatlovchi bo‘g‘in sifatida harakat qilishi mumkin.

“Dunyoy” AA

Nuqtayi nazar

TADBIRKORLIK – FAROVONLIK VA QUDRAT MANBAI

Tadbirkorlik xalqimizning azaliy qadriyatlaridan. Bu xislat sohiblari halol mehnat qilib, rizq-ro‘z topadi. Shu bois, taraqqiy etgan davlatlar tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning emin-erkin faoliyat yuritishi, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun qulay sharoit yaratishga alohida e’tibor qaratadi.

Mamlakatimizda tadbirkorlarga iqtisodiyotning tayanchi sifatida qaralib, biznes muhiti tobora qulaylashtirilmoqda. Mahalladagi yakka tartibdagi tadbirkorlikdan tortib, yirik loyihalarigacha qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu jarayonda ishbiarmonlik faoliyatiga to‘siq bo‘ladigan omillar bartaraf etildi. Xususan, biznes yuritishga doir ko‘plab litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. Ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartibi soddalashtirilib, muddati qisqartirildi. O‘rtiqcha tekshiruvlar, naqd pul, valyuta va omashyvo bo‘yicha ko‘plab cheklovlariga barham berildi.

Eng muhimi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor qulay investitsiya va ishbiarmonlik muhitini ta’minlash, mulk daxlsizligi, bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha davlat o‘ziga aniq majburiyatlar oldi. Jamiyatimizdagi bunday yangilanishlar xalqimiz hayotida tub o‘zgarishlar yasamoqda. Odamlarda tadbirkorlikka qiziqish ortdi, barcha tarmoqda tadbirkorlik muhiti shakllanib, kichik va o‘rta biznes hayotimizga jadal kirib keldi.

Kichik biznes mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradi, odamlarga shijoat beradi. Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko‘plab davlatda ish o‘rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan ochilmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasidagi davlat dasturlariga asosan bu jabhada muhim chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilyapti. “Biznesga birinchi qadam”, “Har bir oila — tadbirkor”, “Yoshlar — kelajagimiz” kabi dasturlar amalga oshirilayotir. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun Biznesni rivojlantirish banki, Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etildi.

Mikromoliya bozori uchun keng yo‘l ochilib, bunday xizmatlar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanaypti. Tadbirkorlarni infratuzilma, yer va energiya bilan ta’minlash imkoniyati yaxshilandi. Ichki bozorda teng

tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yaqinda Prezidentimiz bu jabhadagi ishlarga oid taqdimot bilan tanishib, tizimdagi islohotlarni yanada jadallashtirish bo‘yicha qator taklif va tavsiyalar berdi.

Xususan, endi bu boradagi islohotlar davom ettirilgan holda shaffof tadbirkorlik muhitini shakllantirish, naqdsiz to‘lovlar uchun qulayliklarni kengaytirish ko‘zda tutilmoqda. Unga ko‘ra, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun 2030-yil 31-dekabr qadar maxsus huquqiy rejim joriy etiladi. Ularni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan tortib hisobotni topshirishgacha bo‘lgan barcha asosiy xizmatni birlashtiruvchi integratsiyalashgan raqamli platformalar yaratiladi.

Jumladan, faoliyatni rasmiylashtirish, bank hisobvaraqlari ochish va boshqarish, soliqlarni hisoblash va to‘lash, hisob-kitob qilish va fiskal cheklarni shakllantirish ushbu raqamli platformalar orqali yuritiladi.

Bu tizimda elektron hamyon ochilishi tadbirkorlarga daromadlarni qabul qilish, xodimlar, kontragentlar va tashkilotlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash imkoniyatini beradi. Elektron hamyonga ega bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun bank hisobvaraqlarini ochish ixtiyoriy bo‘ladi.

2025-yil 1-noyabr dan boshlab bu jarayonlarda “QR-kod” va “tap to pay” texnologiyasidan foydalaniladi. Hujjatlarni masofaviy biometriya va SMS xabarnoma orqali elektron kalitsiz imzolash mumkin bo‘ladi. Bu ma’lumotlar qog‘oz nusxadagi hujjatlar bilan tenglashtiriladi. “Kunlik to‘lov” tartibi tajriba tariqasida joriy etilib, xodimlarga to‘lovlarni elektron hamyon orqali to‘lash imkoniyati yaratiladi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab yillik aylanmasi 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka

tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarda elektron to‘lovlarni qabul qiluvchi maxsus QR-kod mavjud bo‘lishi chakana savdo qoidalarining majburiy talabi etib belgilanadi. Raqamli platformadagi pul aylanmasi to‘g‘risidagi ma’lumot kredit ajratishda inobatga olinadi.

Prezidentimizning shu yil 12-avgustdagi “Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu vazifalarni ro‘yobga chiqarishga muhim asos bo‘ldi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning ixtiyoriy ravishda rasmiy sektorda ishlashini rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish, ma’muriy tartib-taomillarning takrorlanuvchi va o‘rtiqcha talablarini bekor qilish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan tortib hisobotni topshirishgacha bo‘lgan barcha asosiy xizmatni birlashtiruvchi integratsiyalashgan raqamli platformalar yaratish, naqdsiz to‘lovlarni qabul qilish uchun qulay va samarali mexanizmlarni joriy etish bu yo‘nalishdagi ustuvor vazifadir.

Qarorga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvardan boshlab yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash tartibi, soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan daromad 100 million so‘mdan oshmagan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni aylanmadan olinadigan soliq to‘lashdan ozod qilish tartibi bekor qilinadi.

— Tadbirkorlik barcha sohaning lokomotividir, — deydi “Kichik biznes” uyushmasi raisi Kamola Mirzaaliyeva. — Aholini sifatl mahsulotlar bilan ta’minlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish, zamonaviy xizmatlar ko‘rsatish, yangi ish o‘rinlari ochish masalalarida asosiy o‘ringa ega ishbiarmonlik rivojlansa, albatta, boshqa sohalarni ham gullab-yashnaydi. Bu haqiqatni rivojlangan mamlakatlar tajribasi tasdiqlayapti. Shu bois, mamlakatimizda tadbirkorlik rivojiga katta e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz har yili tadbirkorlar bilan uchrashib, soha rivojiga to‘siq bo‘layotgan muammolar hamda tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha dolzarb vazifalar yuzasidan ochiq muloqot qilmoqda.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar yanada kengayishi mazkur jabhadagi sa‘y-harakatlar rivojiga xizmat qiladi. Bu ishlar yurtimizda raqobatbardosh va shaffof tadbirkorlik muhitini kuchaytirish orqali biznes rivojiga keng yo‘l ochadi, tadbirkorlarning soni bilan birga yutuqlarini ham ko‘paytiradi.

Bahor XIDIROVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Maks SEY, “Kingsley Strategic Institute” tahlil markazi ijrochi direktori (Malayziya):

— Sammit o‘tkaziladigan joy sifatida qadimiy Samarqandning tanlanishi ushbu tadbirning ramziyligini ta’kidlab, ikki davlatning muloqotni chuqurlashtirishga intilishidan dalolat beradi.

Yaqin Sharqning ko‘plab davlatlari O‘zbekiston rahbariyatining Falastin masalasidagi konstruktiv pozitsiyasini, mamlakatning insonparvarlik tashabbuslarini, mintaqada tinchlik o‘rnatishga bo‘lgan samimiy istagini yuksak qadrlamoqda.

An‘anaga ko‘ra, Yaqin Sharq diplomatiyasida muhim rol o‘ynaydigan Iordaniya O‘zbekistonni mintaqaviy



mojarolarni adolatli hal etishga ko‘maklashishda ishonchli hamkor deb biladi. Toshkentning Falastin xalqini qo‘llab-quvvatlash va tinch yo‘l bilan kelishuvga chaqiruvchi arab davlatlari poytaxtlarida o‘z

muloqotning yangi modeliga o‘tish ramzi sanaladi. Geosiyosiy nuqtayi nazardan, tashrif O‘zbekiston uchun Yaqin Sharqdagi va islom olamidagi mavqeiini mustahkamlovchi qadam sifatida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston — Iordaniya munosabatlari mustahkamlangan rasmiy Toshkent faol ravishda aloqalarni kengaytirayotgan Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi mamlakatlariga yuborilgan muhim signaldir. Iordaniya uchun bu tashrif Markaziy Osiyodagi siyosiy ishtirokini kengaytirish yo‘lidagi qadam bo‘lib, bu Ammannning tashqi siyosiy aloqalarni diversifikatsiya qilish kursiga mos keladi. Butun Markaziy Osiyo uchun esa ushbu tashrif “Markaziy Osiyo — Yaqin Sharq” muloqotini rivojlantirish asosini mustahkamlaydi.

Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynni tashrifigacha O‘zbekiston — Iordaniya iqtisodiy aloqalari kamtarona edi. Biroq so‘nggi yillar paradigma o‘zgarishi bilan tavassiflanadi. Har ikki tomon ham munosabatlarga tizimli xususiyat berishga intilmoqda, iqtisodiy va gumanitar imkoniyatlarning bir-birini to‘ldirishiga tayanmoqda. Iordaniya yetakchisining tashrifi o‘zaro hamkorlikni chuqurlashtirish tendensiyasining mantiqiy davomi bo‘ldi.



Go‘zel MAYTDINOVA, Geosiyosiy tadqiqotlar markazi direktori, Rossiya-Tojikiston (slavyan) universiteti professori:

— Iordaniya Podshohining davlat tashrifi O‘zbekistonning 2025-yildagi diplomatik taqvimidagi eng muhim voqealardan biri bo‘ldi. Bu 1993-yil 15-fevralda boshlangan O‘zbekiston — Iordaniya munosabatlari izchil rivojlanishining cho‘qqisini va ikki davlat munosabatlarini yanada yuqori bosqichga ko‘tarish istagini o‘zida aks ettirdi.

Mazkur tashrif ikki tomonlama munosabatlarda ilk bor tashkil qilingan bo‘lib,



“Bugun dunyoda ro‘y berayotgan global o‘zgarishlar mamlakatimiz oldiga ham muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Shundan kelib chiqib, insoniyat, mintaq va milliy taraqqiyotimizga daxldor ko‘plab yangi tashabbus va loyihalar amalga oshirilayotir. Tabiiyki, bunday keng miqyosli maqsad va rejalarni ro‘yobga chiqarishda butun xalqimiz qatorida tadbirkorlarning ham o‘z o‘rni bor. Shu bois, tadbirkorlik rivojini ta’minlash uchun ham sa‘y-harakatlarni yanada kuchaytirish davrning muhim talabidir.

raqobat muhiti yaratilishi barobarida tashqi bozorlarga chiqishga ham ko‘maklashilyapti. Tadbirkorlarni qiyinayotgan muammolarni o‘z vaqtida aniqlab, tezkor yechim topish chorasi ko‘rilmoqda. Bunday e’tibor va yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli yakka tartibdagi tadbirkorlar safi tobora kengaymoqda. 5.5 milliarddan ortiq kishi o‘zini o‘zi band qilgan.

Bugun dunyoda ro‘y berayotgan global o‘zgarishlar mamlakatimiz oldiga ham muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Shundan kelib chiqib, insoniyat, mintaq va milliy taraqqiyotimizga daxldor ko‘plab yangi tashabbus va loyihalar amalga oshirilayotir. Tabiiyki, bunday keng miqyosli maqsad va rejalarni ro‘yobga chiqarishda butun xalqimiz qatorida tadbirkorlarning ham o‘z o‘rni bor. Shu bois, tadbirkorlik rivojini ta’minlash uchun ham sa‘y-harakatlarni yanada kuchaytirish davrning muhim talabidir.

Mamlakatimizda ana shu talabdan kelib chiqib, biznes yuritish qoidalari soddalashtirildi, qulayliklar esa oshirib borilmoqda. Bu jarayonda yakka tartibdagi





Yuksalish pallası

Bandixon — Surxondaryo viloyatidagi eng kenja tumanlardan biri. Ushbu tuman davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilib, uni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi qabul qilingan edi.

Hozirgi kunda Bandixon tumanida 22 ta mahalla bo'lib, ularda 15 mingdan ortiq xonadon mavjud. Oilalar soni 19 mingtani tashkil etib, 85,3 ming aholi istiqomat qilib kelmoqda.

notanish emas. Bugun bu yerda mutlaqo boshqa bir manzarani ko'rasiz.

— Tuman hokimligi tashabbusi bilan mahalliy budjetdan tashqari mablag'lar



kilometr ichki xo'jalik yo'llarini ta'mirlash ishlari olib borildi. Aholining bunyodkorlikka ishtiyogi bilan yo'llar ravon, ko'ngillar obod bo'lib boryapti, — deydi Bandixon tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Alisher Norboyev.

Ochig'ini aytish kerak, bir necha yil ilgari Bandixon tumanida investitsiyaviy loyiha degan tushunchaning o'zi yo'q edi. Keyingi yillarda tumanda bu kabi loyihalar anchagina jonlandi. Hozir hududda 12 ta loyiha ishlab turibdi. Va bu, o'z navbatida, iqtisodiy faollikni ta'minlayapti. Ish o'rinlari yaratilishiga hissa qo'shyapti, tumanning jozibadorligini yanada oshiryapti.

Tuman qayta tashkil etilganida viloyat bo'yicha tadbirkorlik subyektlari soni eng past ko'rsatkichda bo'lgan. Bugungi kunda tadbirkorlar uchun ko'plab qulayliklar yaratib berilmoqda. So'nggi ikki-uch yil ichida endigina faoliyat boshlagan ishbiarmonlar ham bundan ruhlanib, sa'y-harakatlarini yanada kuchaytirmoqda. Islohotlar silsilasida biznes

— Yaqinda bunyod etilgan 10 ming kub metr suv saqlash inshooti yonidagi xonadonlardan birida yashayman. Bunday yirik suv saqlash inshooti Surxondaryoda hali yagona deyishdi. Bugun bizni quvontirayotgan bir jihat bor. Ilgari bir qultum suv muammo bo'lgan hududda mana shunday yirik suv inshooti qurilgani aholi uchun ayni muddao, — deydi mehnat faxriysi Normamat Boyto'rayev. — Haqiqatni aytishimiz kerak, bandixonliklar suv uchun 20-25 chaqirim yo'l bosishiga to'g'ri kelgan. Bugun ularning asrlar davomida suv bilan bog'liq orzu qilgan niyatlari ijobat bo'ldi.

Bandixonida Zevar, Obod yurt, Limonzor va Polvontosh kabi 4 ta og'ir toifadagi mahallalar mavjud. Mazkur hududlarda aholi tomorqa yerlarini sug'orish infratuzilma obyektlarini yangilash uchun davlat byudjetidan 5 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. Ushbu loyihaning amalga oshirilishi natijasida 1812 xonadon tomorqasida suv ta'minoti yaxшилandi. Polvontosh mahallasida betonlangan sug'orish tarmoqlari hisobiga joriy mavsumda har yilgiga nisbatan suv yo'qotishlar hajmi ancha qisqarib, kamida 20 foiz o'ibahoy tejallishiga erishildi. Ilgari suv yetib borishi qiyin bo'lgan maydonlarni suv bilan ta'minlashga imkoniyat yaratildi.

Tumanda bugungi kunda kuzatilayotgan iqtisodiy o'sish tufayli kambag'allik darajasi 10,4 foizdan 7,8 foizga tushgani ham quvonarli hol.

Bir so'z bilan aytganda, Bandixon nafaqat Surxondaryo viloyatida, balki yurtimizda o'z iqtisodiy salohiyati bilan tobora ko'zga tashlanayotgan tumanlar qatoridan joy olmoqda. Bu yerda ayni paytda zamonaviy, o'ziga xos infratuzilma shakllanyapti, sanoat va ishlab chiqarish rivojlanayotgan hududlardan biriga aylanib boryapti. Istiqbolli rejalar esa uning kelajakda yanada yuksalishidan dalolat bermoqda. Bugungi islohotlar mohiyatida imkoniyatlar bilan tashabbuslar birlashyapti. Bir-birini to'ldiradigan bu mexanizmlarning shakllanishi evaziga aholining bugundagi roziligi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi yanada ortyapti. Boshqacha aytganda, xalqning azaliy orzulari to'yog'ga chiqmoqda.

Sarvar TO'RAYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

HADIK O'RNINI ISHONCH VA HAYOTDAN ROZILIK HISSI EGALLADI

Aytish joizki, qisqa muddatda tuman hayoti qayta bunyod etildi. Hududda istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali yangi ish o'rinlarini tashkil etish, aholi bandligi va xarid qobiliyatini oshirish hamda muhandislik-kommunikatsiya, ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash ishlari jadallashtirildi.

— Bundan atigi besh yil ilgari mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan tuman qayta tashkil etilgan edi. To'g'risi, o'sha paytda ko'pchilik, jumladan, biz, ziyolilar ham Bandixon tumanining qayta tashkil etilganidan xursand bo'ldig-u, lekin bu yerda aniq bir ishlab chiqarish korxonalari yo'qligi, ish bilan ta'minlash uchun keng imkoniyatlar mavjud emasligi ruhimizni bir oz tushirardi. Qanday uddalanan ekan, tuman qanday qilib o'z iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilaydiyu aholi uchun munosib yashash sharoitini qay alfozda yaratib berishi mumkin degan hadik va xavotir yo'q emasdi. Mana ko'ryapsiz, xavotirga o'rin yo'q ekan, — deydi O'zbekiston xalq baxshisi Safar Shaydillov. — Bandixon real islohotlar, o'zgarishlar bilan, keng miqyosli amaliy ishlari bilan viloyatda ham, respublikada ham yetakchi o'rinlarni egallashga harakat qilib kelyapti. Gapning po'stkallasi, bugungi O'zbekistonning yangi tarixi yozilayotgan paytda yangi Bandixonning ham shunga hamohang jadal taraqqiyot davri boshlangan.

Tumanda so'nggi besh yilda katta yutuqlarga erishildi. Bir vaqtlar sanoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari yoki to'liq bolalarni qamrab olish uchun maktablar ham yo'q edi. Byudjetdan yetarlacha mablag' yo'naltirilib, barcha o'quvchilarning ta'lim olishi uchun imkoniyatlar yaratildi. Umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari qurib berildi. Bugungi kunda maktablarning soni 44 taga yetgan bo'lsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari 80 dan ortdi.



Bor gapki, Bandixonning rivojlanish sari yuz tutgan bugungi tibbiyotini ham besh yil avvalgi holat bilan mutlaqo taqqoslash qiyin.

— Sizga yolg'on, bizga chin, Bandixon tumani tibbiyoti haqida so'z borganda, kechagi muammolar endi og'riqli xotiraga aylandi. Birinchi marta tumanga tashrif buyurgan yoki tumandagi o'zgarishlarni ichidan ko'rmagan, jonli guvohi bo'lmagan odam bu hududning kechagi kunini umuman tasavvur qilolmaydi. Chunki haqiqatan juda katta o'zgarishlar bo'ldi. 2020-yilda Bandixon tumani aholisi 78 ming nafarni tashkil etgan. Bandixon markazidagi shifoxonadagi o'rinlar soni esa atigi 78 ta bo'lgan. Hozir bir mahallaning o'zida 50-60 o'rinni tibbiyot muassasasi faoliyat yuritaypti. Bu ham katta bir o'sishdan darak beradi, — deydi shifokor Odinaqul Xolmatov.

O'tgan yillar mobaynida tuman markazini to'liq obodonlashtirish, me'moriy qiyofasini tubdan o'zgartirish, aholi va mehmonlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ustida e'tiborga molik ishlari olib borildi.

— Ko'rib, kuzatib turibmiz, tumanda barcha sohalarida yangilanishlar, ilg'or tashabbuslar hayotga keng targ'ib qilinaypti. Bir-biridan chiroyli qator ijtimoiy soha obyektlari barpo etilib, tumanimiz markazi ham, mahallalari ham zamonaviy va ko'rkam bo'lyapti. Bundan biz, nuroniylar mamnunmiz, — deydi “Nuroniy” jamg'armasi tuman bo'limi raisi Quddat Eshmamatov.

Bandixonga kelgan biladi, bundan atigi besh-olti yillar oldin yo'llar holati achinarli, yo'lovchilar ta'biri bilan aytganda, “borsa kelmas”day joylar edi. Qishda tizza bo'yi loy, yozning chang-to'zoni bu manzildagi aholiga

hisobidan joriy yilda tuman markazidan o'tuvchi yo'lining 5 kilometrga yaqin qismi 744,2 million so'mga tubdan yangilandi. 88 dona tungi yoritish chiroqlari o'rnatildi. Shuningdek, tuman hududidan o'tuvchi davlat ahamiyatidagi 19 kilometr yo'l asfaltlandi. Shu bilan birga, 15 ta mahalla hududidagi 54

vakillarining soni ortib, ular tomonidan shu kungacha 600 milliard so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Bandixonning agrar hududdan iqtisodiy jihatdan yanada rivojlangan manzilga aylanib borayotgani tuman aholisini xursand qilayotgani bor gap.



Yangicha yondashuvlar

TO'QIMACHILIK FARG'ONA SANOATINING ASOSIY DRAYVERIGA AYLANMOQDA

Qo'shtepa tumanidagi “Innovative Apparel” MCHJda qiymati 15 million dollarlik trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi. Loyihaning yillik eksport qiymati 5 million dollarga teng.

Uchko'priq tumanidagi “Bahodirov Akbarjon” oilaviy korxonasi tashabbusi bilan mato bo'yash va paypoq ishlab chiqarish korxonasi ish boshladi. Qiymati 1,8 million dollarlik loyiha kafolati ish o'rinlari ochish imkonini berdi. Bu sa'y-harakatlar o'z-o'zidan amalga oshirilayotgani yo'q, albatta.

Farg'ona viloyatida paxtani birlamchi qayta ishlashdan tayyor va yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan amaliy loyihalar ko'lami kengaydi. Ayni kunda viloyat to'qimachilik sanoatida 1271 ta (25 ta yirik) korxona faoliyat yuritib kelmoqda. Ularning 81 tasi ip-kalava, 65 tasi gazlama, 51 tasi trikotaj polotno, 129 tasi paypoq ishlab chiqarmoqda. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlarining sanoatdagi ulushi 28,5 foizni, ya'ni 7,6 trillion so'mni tashkil etdi.

Keyingi yillarda to'qimachilik tarmog'ida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Bu paxta xomashyosidan tayyor mahsulotgacha bo'lgan zanjimni qamrab olish, zamonaviy ishlab chiqarishdagi loyiha va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga e'tiborning amaliy namunasi sifatida bo'y ko'rsatmoqda.

Rishton tumanidagi “Kosto Line Holding” MCHJ korxonasi ishga tushirilganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Ammo mahsulotlari ichki va tashqi bozorda o'z xaridorlariga ega. Loyiha qiymati 32 million dollar bo'lgan korxonada 20,6 ming tonna ip-kalava, mato, momiq sochiq, choysab kabilar ishlab chiqariyapti. Yillik eksport qiymati 30 million dollardan oshdi. Germaniya, Italiya, Turkiya, Fransiya, keltirilgan to'qimachilik uskunalarini 600 dan ortiq mahalliy yigit-qiz mahorat bilan boshqarmoqda. Yana bir muhim jihati, ishlab chiqarishda energiyatejammor texnologiyalar qo'llanmoqda. Korxona hududida umumiy quvvati 212 kilovatt-soatli quyosh panellari o'rnatilgan. Ayni kunda korxona faoliyatini kengaytirish bilan bog'liq ishlar boshlab yuborilgan. Buning uchun 10 million dollar yo'naltirilyapti.

Bir necha yil avval bunday istiqbolli loyiha va tashabbuslar haqida gapirish xomxayol bo'lib ko'ringan. Chunki asosiy e'tibor xomashyo yetishtirish va birlamchi qayta ishlashdan nariga o'tmagan. Sohaga yangi texnika va texnologiyalar olib kelish, ekin navlari va agrotexnikasini rivojlantirish bilan bog'liq ishlar o'z holiga tashlab qo'yilgan. Endi bu boradagi qarashlar, imkoniyatlar o'zgardi. To'qimachilik iqtisodiyotning drayveriga aylanib bormoqda. Dehqonchilikka ilm, zamonaviy texnika, texnologiyalar kirib keldi, manfaatdorlik oshdi, o'zaro raqobat muhiti shakllandi.

— Joriy yil 13-avgust kuni Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan yig'ilishda to'qimachilik sohasida eksport imkoniyatlarini oshirish, foydalanilmagan zaxiralarni ishga solish, soha ishbiarmonlariga yangi sharoitlar yaratish va imtiyozlar berish yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar bu borada yangi imkoniyat eshiklarini ochmoqda, — deydi Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari Nuriddin Mamajonov. — Mamlakatimizda yetishtirilayotgan paxta xomashyosi yuqori sifati, pishiqiligi hamda zamonaviy to'qimachilik sanoati talablariga to'la javob berishi bilan jahonda mashhur. Mahsulot yetishtirishni ko'paytirish bilan birga mahalliy xomashyolardan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish bugunning ustuvor vazifasidir. O'tgan yilning o'zida shu maqsadga xizmat qiladigan 462 ta istiqbolli loyiha amalga oshirildi. Eksportyor agroklaster hamda fermer xo'jaliklari tomonidan 315 million dollarlik qishloq xo'jaligi mahsuloti eksport qilindi. Bu avvalgi yillarga qiyoslaganda 1,5 barobar ko'p. Uch-to'rt yil oldin paxtani ip-kalavaga aylantirish hajmi 100 foizni tashkil etgan bo'lsa, idpan keyingi bosqich 5 foizdan oshmagan. Joriy yil yakuniga ko'ra, viloyatimizda mato ishlab chiqarish ko'rsatkichi 127, bo'yash 29 va mahsulot tayyorlash 137 foizga yetadi. Yil yakuniga qadar imkoniyatlardan kelib chiqib, to'qimachilik sanoatida qiymati 518 million



dollarlik 187 ta loyiha amalga oshirildi. Bu oddiy raqam emas. Uning zamirida minglab ish o'rinlari ochish, logistika bilan bog'liq bunyodkorlik ishlari mujassam.

Furqat tumanida xitoylik ishbiarmonlar bilan hamkorlikda “Furqat in tex” MCHJning ip-kalava ishlab chiqarish bo'yicha qiymati 20 million dollarlik loyihasi amalga oshirilishi hisobiga 500 ta yuqori daromadli ish o'rni ochildi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning 50 foizi eksportga yo'naltiriladi. Shuningdek, Marg'ilon shahridagi “Textile Group Andgold” MCHJda qiymati 2 million dollarlik trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi yo'lga qo'yilishi hisobiga yiliga 30 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqariladi. Yillik eksport qiymati 2 million dollarga teng.

“Izmir innovation textile 777” korxonasi tomonidan sun'iy ipdan mato, “Tim Textile Co” MCHJda trikotaj matolar ishlab chiqarish va bo'yash loyihasi doirasida 6 ming tonna trikotaj mato tayyorlanib, yuqori daromadli 300 ta ish o'rni ochildi. Natijada to'qimachilik mahsulotlarining yillik eksporti qiymati 400 million dollardan oshadi. Bu yutuqlar zamirida, eng avvalo, bozorni erkinlashtirish, sohada byurokratik to'siqlarga barham berish,



innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy ishlar mujassam.

— Paxta yetishtirish, qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonni qamrab olgan tashabbuslar ko'lami kundan kunga kengayib bormoqda, — deydi Oltiariq tumanidagi “Hamza ekspozitsiya” MCHJ klaster xo'jaligi rahbari o'rinbosari Ilhomjon Obidov. — Ayni kunga qadar yiliga 35 ming tonna paxtani tozalash zavodi, yangi yigiruv, tikuv sexlari ochildi. Matolarga rang berish loyihasini amalga oshiryapmiz. Bu xomashyoni chuqur qayta ishlash, qo'shimcha qiymatga ega mahsulot tayyorlash va eksportga yo'naltirish, aholi bandligini ta'minlashda yangi imkoniyatlar beradi. Masalan, paxta tolasidan bir kilo oddiy ip ishlab chiqarilsa, narxi bir dollar

bo'ladi. Tayyor mahsulot shaklida esa qiymati to'rt-besh hissa ortadi. Muhimi, xomashyo emas, tayyor mahsulotlarni bozorga chiqaryapmiz.

Dastlab ip yigiruv va to'qimachilik yo'nalishida ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan korxonada bugunga kelib, paxtani chigitdan ajratish, ip yigirish, to'qish va tikish bilan bog'liq mustahkam zanjir yaratilib, 800 dan ortiq yangi ish o'rni ochildi. Ularga asosan “Temir daftar”, “Ayollar daftri”, “Yoshlar daftri”ga kiritilgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar vakillari joylashtirildi.

— Tikuvchilik malakasiga egaman. Ammo qishlog'imizda ishlab chiqarish korxonasi yo'qligi uchun ishsiz xotin-qizlar ro'yxatida turganman, — deydi Shohista Xonkeldiyeva. — “Obod” mahalla fuqarolar yig'ini faollari klaster huzurida ochildigan yangi tikuvchilik sexiga ishga taklif qilindi. Rozi bo'ldim. Mehnatimizga yarasha daromad topaymiz. Bepul issiq ovqat bilan ta'minlanaymiz. Ishga kelib-ketish uchun transport xizmati bor.

Mahalliy xomashyolardan ishlab chiqarilayotgan bejirim choysahablar, xo'jalik sumkalariga talab kundan kunga ortib bormoqda. Mahsulotlarning asosiy qismi qo'shni mamlakatlardan tashqari Polsha, Germaniya va Rossiyaga jo'natilmoqda. Polsha va Rossiyada korxonaning savdo uylari

ochilgani xalqaro bozordagi imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

— Prezidentimiz paxta klasterlari uchun har jihatdan yangi imkoniyat va qulayliklar yaratib bermoqda, — deydi Dang'ara tumanidagi “Musavartex” MCHJ shaklidagi paxta-to'qimachilik klasteri rahbari Farhodjon Bo'latov. — Klasterlarga 2022-2023-yillar hosili uchun berilgan kredit bo'yicha 1-avgust holatiga ko'ra yuzaga kelgan penyardan voz kechildi. Tijorat kreditidan majburiyati bor bo'lgan korxonalarni sog'lomlashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Faylatini barqarorlashtirish imkonini ko'rgan korxonalarining kredit muddati 7 yilgacha uzaytirib berilayotgani soha rivojida muhim qadam bo'ldi. Paxtani o'z vaqtida, nobud qilmay terib olish uchun fermerlarga tonnasiga 1 million so'mdan subsidiya berilayotgani, korxonalar o'z mablag'i hisobidan paxta yetishtirsa yo'ki xarid qilsa, xomashyo qiymatining 10 foizi qoplanishi hamda tez kunlarda to'qimachilikda “ishonchli eksportchi” dasturi boshlanib, eksport oldi mohiyatlash tizimi yo'lga qo'yilishi hamda to'qimachilikda “dolzarb yuz kunlik” e'lon qilangani katta imkoniyatdirdi. Endi to'qimachilik zanjiridagi barcha korxona uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilandi. Iqtisodiyot va moliya vazirligiga to'la, ip-kalava va mato ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun ham soliqni yengillashtirish bo'yicha taklif kiritish topshirildi. Ishchi-xodimlarining farzandlari uchun bog'cha ochgan to'qimachilik korxonalari har bir tarbiyalanuvchiga subsidiya ajratiladi. Xomashyo qancha ko'p va sifati yuqori bo'lsa, manfaatdorlik ham shunga yarasha bo'ladi. Hozirga qadar paxtani qayta ishlash, ip yigiruv va momiq sochiqlar ishlab chiqarish loyihasini ishga tushirdi. Paxta chiqarilgan yog' ishlab chiqarish yo'nalishida loyihalarni amalga oshiryapmiz. Bu dunyo bozoriga xomashyo emas, tayyor mahsulot yetkazib berish imkonini yaratmoqda.

To'qimachilik korxonalari deganda, avvallari shovqin-suron, atrofi chang-to'zondan iborat manzara ko'z o'ngimizda gavaladanardi. Bu yerda ishlab chiqarilgan paxta to'larining asosiy qismi temir yo'l orqali o'zga yurtlarga olib ketilgan. Egatlar orahab yil davomida mehnat qilgan dehqonlar hech qanday manfaat topmagan. Bugun bu boradagi holat, manzara o'zgacha. Quyoshli ona zaminimizda pishib yetilgan sarxol hosil shu yerda qayta ishlaniy, tayyor mahsulot sifatida ichki va tashqi bozorga sotilyapti. Bu yo'nalishlarni qamrab olgan yangidan yangi ishlab chiqarish korxonalari bo'y ko'rsatmoqda. Bir maromda, yuqori umum bilan ishlayotgan dastgohlar, ishidan mamnun mahoratli ishchi-xizmatchilar O'zbekiston paxta va to'qimachilik sanoatining yorqin istiqbolidan so'zlaydi.

Rasuljon KAMOLOY,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.

Bugun kashfiyotlar, yangiliklar, ilm-fandagi o‘zgarishlar odamlarni avvalgidek hayratlantirmay qo‘ydi. Aksincha, shunday bo‘lishi kerakdek qabul qilayotirmiz. Maktab partasida o‘tirib, bir paytning o‘zida dunyoning bir qancha nufuzli oliygohlariga o‘qishga qabul qilinayotgan yigit-qizlar muvaffaqiyati ham yangi avlod vakillaridan kutiladigan tabiiy natija bo‘lib qoldi. Zero, bugun bunga sharoit ham, imkon ham bor. Qolaversa, ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilgani ta‘limning o‘rta bo‘g‘ini imkoniyatlarini ko‘rsatish barobarida yoshlarni oliy ta‘lim bosqichiga ruhlantiradigan ko‘priik vazifasini ham o‘tayapti.



OLY TA'LIMGA KIRISHDA YUZ FOIZLIK NATIJA BUNGA QANDAY OMILLAR ORQALI ERISHISH MUMKIN?



Mamlakat miqyosida faoliyat yuritayotgan 182 ta ixtisoslashtirilgan maktab orasida Navoiy shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘ziga xos o‘rin tutadi. 2022-yildan faoliyat boshlagan bu ta‘lim dargohining pedagog-xodimlari va o‘quvchilari qisqa muddatda o‘zining bilimi va salohiyati, iqtidorini namoyish etib, ko‘plab yutuqlarga erishib kelyapti. Ayni paytda maktabda 50 ga yaqin pedagog 450 dan ortiq o‘quvchiga ta‘lim-tarbiya berayapti. O‘qituvchilarning 37 nafari oliy toifali, 39 nafari milliy va xalqaro sertifikatga ega. To‘g‘ri, bugun ta‘lim jarayoniga ilg‘or xorijiy tajriba, elektron darsliklar, raqamli texnologiyalar joriy qilinayotgani o‘quvchilarning zamonga mos ilm olishiga keng imkoniyat yaratyapti. Biroq zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalana olish uchun ham muallim zamon bilan hamnafas bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, o‘quvchi e‘tiborini torta olish mahorati yetarli bo‘lishi dardkor. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatdagi ta‘lim jarayonida ayni jihatlariga jiddiy yondashiladi. Shu bois, yaqinda oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlari natijalari e‘lon qilingach, maktab-internat bitiruvchilarining muvaffaqiyati jamoatchilik tomonidan e‘tirof etildi. Ta‘lim muassasasining barcha bitiruvchisi OTMlarga o‘qishga qabul qilindi. O‘quvchilarning 42 nafari davlat granti, 18 nafari shartnoma asosida nufuzli oliygohlarda tahsil oladi.

— Men juda baxtiyor otaman, — deydi navoiylik Xurshid Qurbonov. — Sababi ikkinchi farzandim Anvar Qurbonov ushbu maktab-internatni oltin medal bilan tugatib, muddatidan oldin talaba bo‘ldi. Buning zamidira mamlakatimiz ta‘lim tizimidagi islohotlar va Uchinchi Rennassans poydevorini qo‘yishdagi dadil qadamlar turibdi. O‘zim pedagog bo‘lganim uchun bu natijaga erishish yo‘lida ustozlari qanchalik mehnat qilgani, zahmat chekkanini yaxshi bilaman.

Ilm egallash igna bilan quduq qazishga tenglashtiril ekan, ilm o‘rgatish mashaqqati ham undan kam bo‘lmaydi. O‘z ustida tinimsiz ishlash, faoliyatining yangi qirralarini namoyon etish pedagog kasbiy rivojlanishining muhim omilidir. Joriy yilda o‘qituvchilar o‘rtasida fizika va kimyo fanlari bo‘yicha o‘tkazilgan olimpiadada 1-o‘rinni egallagan kimyo fani o‘qituvchisi Dilshod Norqulov, faxriy o‘rinlarni

qo‘lga kiritgan. Muddatidan oldin talabalar safiga qabul qilingan bitiruvchilarning 11 nafari eng yuqori (189) ballni to‘pladi. Dilmura Narzullayeva, Javohir Ixtiyorov, Anvar Qurbonov, Amirxon Tohirov, Faxriddin Yaxshiboyev chet elning nufuzli oliy ta‘lim muassasalari grantini qo‘lga kiritgani, “Yangi O‘zbekiston” universitetiga muddatidan avval o‘qishga qabul qilinganini alohida ta‘kidlash joiz.

Guliston tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati 315 o‘quvchi o‘miga mo‘ljallangan. 200 o‘rinli yotoqxona hamda 150 o‘rinli oshxona bilimdonlar xizmatida. Darslar 8:00 dan 17:00 gacha davom etadi. O‘qishdan so‘ng bolalar fan, sport, kitobxonlik to‘garaklarida bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi va bilimini mustahkamlashi uchun zarur sharoit yaratilgan.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



qo‘lga kiritgan fizika fani o‘qituvchilari Boburjon Halimov, Jahongir Xolmo‘minovni izlanuvchan pedagoglar sirasiga kiritish mumkin. Ustozlarining o‘giti, ko‘rsatmalariga amal qilgan o‘quvchilar ham turli tanlov va olimpiadalarda yuqori natijalarga erishib kelmoqda.

Maktab-internat direktori Odil Norovning aytishicha, 2024/2025-o‘quv yilida muassasa o‘quvchilari 248 ta milliy va xalqaro sertifikatini

2021-yilda Navoiy viloyati hokimligi va xalq ta‘limi boshqarmasi “O‘zbekiston mustaqilligining 30 yilligiga 30 ta maktab” shiori ostida 30 ta umumta‘lim maktabidagi bitiruvchilarning oliy ta‘lim muassasalariga to‘liq o‘qishga kirishini ta‘minlash tashabbusi bilan chiqqandi. O‘sha yili 30 ta maktabning hamma bitiruvchisi to‘liq oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilingan. Ajabmaski, mustaqillikning 35 yilligiga 35 ta maktab shunday natija ko‘rsatasa...

Joriy o‘quv yili maktab-internat uchun omadli keldi. Mana, uchinchi yildirki, ta‘lim muassasasi bitiruvchilarining oliygohga kirish ko‘rsatkichi 100 foizni tashkil etyapti. Bu yil talabalik maqomiga erishgan 42 o‘quvchining 35 nafari davlat granti, 7 nafari to‘lov-kontrakt asosida oliy ta‘lim olish imkoniga ega bo‘ldi. Birgina Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga 12 o‘quvchining grant asosida o‘qishga qabul qilingani quvonarli natija, albatta. Guliston tuman

XXI asr dunyoga yangi tartiblarni olib kirdi. Bugun davlatlarning kuch-qudrati nafaqat tabiiy boyliklar yoki sanoat imkoniyatlari, balki aqliy salohiyat, yangi g‘oyalar va biliml insonlar bilan o‘lchanmoqda. Shu asnoda faqat xomashyoga asoslangan eski iqtisodiy modellar o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Zamon bilan hamnafas bo‘la olmagan mamlakatlar esa global taraqqiyotdan ortda qolishi muqarrar. To‘rtinchi sanoat inqilobi davrida raqamli texnologiyalarni yaxshi o‘zlashtirgan, dunyo miqyosida fikrlay oladigan va yangiliklar yaratadigan avlodgina mamlakatning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

Aynan shu haqiqatni chuqur anglagan holda yangi O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining eng to‘g‘ri yo‘li sifatida yoshlarning bilimiga sarmoya kiritish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni tanladi. Bu shunchaki iqtisodiy o‘zishga erishish emas, balki XXI asrda mamlakatning raqobatbardoshligi va mustaqil taraqqiyot yo‘lini ta‘minlashga qaratilgan juda muhim qarashdir. Buni, shuningdek, Uchinchi Rennassans poydevorini qurishga qaratilgan eng asosiy g‘oya deb atasa bo‘ladi.

Tanlov natijalarini bugun hayotimizning har bir sohasida yaqqol ko‘rish mumkin. Prezidentimizning joriy yil Yoshlar kuniga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi bu boradagi ishlar yuksak samara berayotganini yana bir bor ko‘rsatdi.

Mamlakatimiz yoshlarining eng nufuzli oliygohlarga o‘qishga kirayotgani buning yozuqi dalilidir. O‘rgan yilning o‘zida yurtimiz yoshlari dunyoning eng yetakchi 500 oliygohiga o‘qishga kirish bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinni egalladi. Eng muhimi, biliml yigit-qizlarning ilk bor jahonning eng ilg‘or 5 ta oliygohiga o‘qishga kirib, tarixiy natijani qayd etdi. Bu intellektual to‘lqin mamlakatda yaratilgan yangi ta‘lim tizimining samaradorligini ko‘rsatadi. Mana shu yoshlar ertaga yuqori malakali kadrlar sifatida yurtimizga qaytib, islohotlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Bugun o‘zbekistonlik 30 yigit-qiz dunyoning eng yetakchi 10 ta universitetida, 500 nafari kuchli 100 talikka kirgan va 1500 nafari yetakchi 300 talikdan joy olgan nufuzli ta‘lim dargohlarida tahsil olmoqda. Bu yutuqlar islohotlarning avvalida asos solingan va bugun o‘z mevasini berayotgan “ilm — tarbiya — innovatsiya” zanjirining tabiiy natijasidir. Mamlakatimiz oliygohlarida aynan shu qadim asosida ta‘lim berilayotgani tufayli yoshlar nafaqat chuqur bilim va zamonaviy ko‘nikmalar, balki yuksak odoab-xloq ruhida tarbiyalanmoqda. Ular o‘rganagan bilimini foydali loyihalarga aylantirib, Vatan rivojiga hissa qo‘shishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda.

Bilimli avlod kuchli iqtisodiyotning mustahkam poydevoridir. Bu haqiqatning eng yorqin isbotini bugun tez rivojlanayotgan axborot

UCHINCHI RENESSANS

UZOQDAGI ORZU EMAS, BUGUNNING HAQIQATI

Kamolot pillapoyalarida

texnologiyalari sohasida ko‘rishimiz mumkin. Bir necha yil oldin faqat poytaxtda bo‘lgan axborot texnologiyalari markazlari bugun AT park ko‘rinishida butun mamlakat bo‘ylab, hatto eng chekka hududlarda ham ochilib, 1400 dan ortiq kompaniyani birlashtirdi. Mazkur imkoniyatlarning markazdan hududlarga ham ko‘chishi iqtidorli yoshlarning o‘z viloyatida turib muvaffaqiyatli kariyera qurishini ta‘minlamogda. Bular shunchaki ish o‘rinlari emas, balki munosib hayot kechirish va doimiy rivojlanish imkonini beradigan kelajak kasblaridir. Kompaniyalar sonining qisqa vaqtda yuksak darajada o‘shishi, o‘z navbatida, o‘n minglab yangi, maoshi yaxshi va eng muhimi, aqliy mehnatga asoslangan ish o‘rinlari yaratilganini bildiradi. E‘tiborsiz, bu ish o‘rinlarida xalqaro talablarga bemaol javob bera oladigan yoshlarimiz ishlamoqda. Natijada AT xizmatlar eksperti keskin o‘shib, 2024-yilda 1 milliard dollarga yaqinlashdi. Bu raqam O‘zbekistonning jahon AT bozorida o‘z o‘miga ega bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Bunday katta yutuqlar ortida tasodif emas, balki puxta o‘ylangan va tizimli davlat siyosati muvaffaqiyatli. “Bir million o‘zbek dasturichisi” kabi loyihalar yoshlar orasida dasturlashni o‘rganishni ommalashtirayotgan bo‘lsa, turli tartiblari tadbirkorlik bilan shug‘ullanishiga katta turki bermoqda. Loyihalar yoshlarda jamoada ishlash, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash kabi muhim ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. Bu o‘rinda oliy ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlarning o‘rni juda muhim. Bugungi universitetlar endi shunchaki o‘qitadigan va diplom beradigan dargoh emas. Ular ta‘lim, ilm-fan va yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etishni birlashtirgan yirik markazlarga aylanmoqda. Bu esa nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni yo‘qotib, har bir bitiruvchining ishga tayyor mutaxassis bo‘lib yetishishiga yordam beradi. Oliygohlar huzuridagi qo‘llab-quvvatlash tizimlari esa eng iqtidorli talabalarning g‘oyalariini haqiqiy biznesga aylantirish, ularga sarmoyador topish va kompaniyalarini ochishda ko‘maklashmoqda.

Kuchli AT mutaxassisini tayyorlash faqat oliygoh doirasida cheklanmaydi. Bu uzluksiz jarayon bo‘lib, poydevori maktabda qo‘yilishi kerak. Chunki dasturlash va raqamli texnologiyalarga qiziqish aynan maktab davrida uyg‘onadi va mustahkamlanadi. Shu maqsadda OTMlarning maktablari, ayniqsa,



ixtisoslashtirilgan o‘quv muassasalari bilan hamkorligini kuchaytirish juda muhim. Oliy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarining maktab o‘quv dasturlarini takomillashtirishda qatnashishi, muntazam mahorat darslari o‘tishi, iqtidorli o‘quvchilarni universitetlar huzuridagi to‘garaklarga jalb qilishi eng samarali yo‘ldir.

Dunyio bilan hamnafas bo‘lish bugun juda muhim. Raqobatbardosh ta‘lim muhitini yaratish uchun nafaqat o‘zimizning yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish, balki xorijlik talabalar va kuchli o‘qituvchilarni yurtimizga jalb qilish ham kerak. Xorijiy universitetlar bilan qo‘shma ta‘lim dasturlarini ko‘paytirish, chet tilidagi darslar sonini oshirish yaxshi natija beradi. Bunday muhitda mahalliy talabalar dunyoning eng ilg‘or bilimlari va madaniyatlar bilan bevosita tanishish imkoniga ega bo‘ladi. Bu ishlar xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan aloqalarni yaxshilash, universitetlarning xalqaro reytinglardagi o‘rmini yuksaltirish va eng muhimi, talabalar uchun sog‘lom raqobat muhitini yaratishga xizmat qiladi. Mamlakatda AT sohasi uchun yaratilgan qulay sharoit unit butun dunyodan kelgan “raqamli ko‘chmanchilar” (ya‘ni masofadan ishlaydigan mutaxassislar) uchun ham jozibador hududga aylantirmogda.

Bu jarayon raqamli texnologiyalarning nafaqat iqtisodiyotga, balki ijtimoiy hayotga ham chuqur kirib borishini ta‘minlamogda. Masalan, bank-moliya sohasidagi katta o‘zgarishlarni olaylik. QR-kodli to‘lovlar, onlayn kredit berish va masofadan turib shaxsni aniqlash

kabi texnologiyalar tufayli 2024-yilda onlayn to‘lovlar summasi 700 trillion so‘mdan oshdi. Ayni raqamlar ortida vaqt tejallishi, xizmatlar sifati oshishi va millionlab inson uchun yaratilgan qulayliklar muvaffaqiyat. Bu shunchaki qulaylik emas, balki yashirin pul aylanmasining kamayishi, moliyaviy ishlarning ochiq-oydin bo‘lishi va aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga xizmat qilayotgan kuchli omildir.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan boshlangan “Dolzarb 90 kun” loyihasi esa yoshlarning ta‘til vaqtini mazmunli o‘tkazishi uchun ajoyib tajriba bo‘ldi. Ilgari yozgi ta‘tilda



ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 11-sinf o‘quvchisi Shohrux Komiljonov AQSHning nufuzli oliygohlaridan biriga o‘qishga kirdi.

Maktab-internatning bitiruvchi bo‘lmagan o‘quvchilari ham bu yil rekord natijalarni qo‘lga kiritdi. Mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida yuqori o‘rinlarni egalladi. Tanlovlar hamda madaniy tadbirlarda ham maktab alohida e‘tirof etildi. Qisqasi, malakali 32 o‘qituvchisining tajribasi va mahorati o‘quvchilarining qator muvaffaqiyatlarida aks etdi.

— Samaradorlik o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. O‘quvchilarimizga darsdan keyingi mashg‘ulotlarda har bir mavzu yuzasidan chuqurlashtirilgan bilim beriladi. O‘zlashtirilgan darslar tahlil qilinadi. O‘quvchilar o‘zi imtihon topshiradigan fanlardan test orqali sinalladi, — deydi maktab direktori G‘olib Bozorov.

Umumta‘lim tizimida Qorako‘l tajribasi minglab ota-onalar ishonchini qozonyapti. Shuning uchun ham bu hududning o‘ziga xos tajribasi butun respublikamiz bo‘ylab ommalashtiryapti. Buxoro davlat universiteti Qorako‘l akademik litseyini bu yil tamomlagan 201 o‘quvchining barchasi OTMga qabul qilingani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Bitiruvchilarning 191 nafari davlat granti (95 foiz), 10 nafari to‘lov shartnomasi (5 foiz) asosida talabalikka tavsiya etildi. Litseydagi o‘qituvchilarning malakasi-yu tajribasi haqida aytmasak ham barchaga kundek ravshan. Avvalo, “ustoz-shogird” an‘analari havas qilsa arizgulik darajada. Pedagoglar “Najot — faqat ta‘limda” shiorini mahkam tutgan. Bilimga chanoq o‘quvchilar esa ustozlar mehridan kuch oladi. Moddiy-texnik imkoniyatlar ham risoladagidek. Fan xonalari zamon talabiga monand jihozlangan, kerakli ko‘rgazmayu o‘quv qurollari, texnikalar bilan ta‘minlangan.

Qorako‘l akademik litseyi direktori G‘olib Jumaqulov o‘quvchilarning yuqori natijalari haqida fikr bildirar ekan, bitiruvchilarning 95 foiziga davlat granti nasib qilganidan g‘oyat xursandligini alohida ta‘kidladi.

— Mana shu o‘quvchilarining barchasi o‘quv yili davomida milliy va xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritdi, fan olimpiadalarida faollik ko‘rsatib, faxrl o‘rinlarni egalladi, — deydi G‘olib Jumaqulov. — Bu borada ota-onalar ham ustozlar bilan hammaslak, hamfikir bo‘lib, farzandining kelajagi uchun har qanday sinovga yelka tutdi. Bu esa o‘z mevasini berdi. Talabalik ostonasida turgan o‘quvchilarimizga ta‘limning endigi bosqichida bundan-da ulkan yutuqlarni tilaymiz. Ular oliy ma‘lumotni ham mana shunday chanoqlik bilan olsa, albatta, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan yetuk kadrlarga aylanadi.

Xalqimizning ertangi kuni bugun farzandlarimizning qanday ta‘lim-tarbiya olishiga bog‘liq ekan, bu boradagi muammolarni hal etish asosiy vazifalarimizdan biri bo‘lib qolaveradi. Ularini yechishda maqolada keltirilgan maktablar tajribasini namuna qilish mumkin. Muvaffaqiyatlar zamidira esa, albatta, ezgu niyat muvassam bo‘ladi. Yuzni so‘rasak o‘rni, o‘rni so‘rasak, birni qo‘lga kiritishimizda ham hikmat bor. Buni hayotiy misollar ko‘rsatib turibdi. Shunday ekan, yurtimizdagi barcha maktab bitiruvchilarining oliygohga kirish ko‘rsatkichi yuz foiz bo‘lishini tilaymiz. Ajabmaski, kelgusi yili boshqa maktablar ham shu natijaga erishib, tilagimiz ijobat bo‘lsa...

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

zamin yaratmoqda. Bu nafaqat mahalliy kompaniyalarning rivojlanishiga, balki dunyoga mashhur yirik kompaniyalarning ham mamlakatga kirib kelishi, o‘z ofislarini ochib, yoshlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratishiga turki bermoqda. Natijada yoshlar o‘rtasida sog‘lom raqobat kuchayib, ular o‘z ustida tinimsiz ishlash, eng yangi texnologiyalarni o‘rganishga intilmoqda. Jamiyatda ham fikr o‘zgardi: bugun dasturchi, AT muhandis yoki startap asoschisi bo‘lish eng obro‘li va kelajagi porloq kasblardan biriga aylandi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar qishloq xo‘jaligi, transport, tibbiyot kabi sohalarga ham yangi ruh bag‘ishlamogda. Qishloq xo‘jaligida dronlar yordamida hosilni tahlil qilish, “aqlil” sug‘orish tizimlari orqali suvni tejash, transportda yuk tashishni optimallashtirish kabi yangiliklar mahsulot tannarxini arzonlashtirish va sifatiini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy samara beradi, balki tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ham katta hissa qo‘shadi. Ta‘limda masofaviy texnologiyalarga chekka hududlardagi yoshlarga ham poytaxtdagi eng kuchli o‘qituvchilarning darslarini ko‘rish imkonini bersa, tibbiyotdagi yangi tizimlar malakali shifokor maslahatini eng olis qishloqlarga ham yetkazib bermoqda. Bularning barchasi yosh dasturchilar, muhandislar va loyiha boshqaruvchilarining tinimsiz mehnati natijasidir.

Oldinda turgan vazifalar yanada keng qamrovli. Galdagi maqsad nafaqat dasturchilar, balki sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlarni tahlil qilish, kibernetika, blokcheyn kabi eng murakkab va kelajagi buyuk yo‘nalishlarda xalqaro talablarga javob beradigan, yangicha fikrlaydigan kadrlar avlodini tayyorlashni yanada kuchaytirishdir. Ushbu soharlar kelajak iqtisodiyotining asosini tashkil etishni hisobga olsak, bugungi sarmoya ertangi global yetakchilik uchun poydevor bo‘ladi. Yoshlarning xalqaro maydondagi yutuqlari, ularning ko‘zidagi ishonch esa maqsadlariga erishish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Yangi O‘zbekiston o‘z kelajagini yer ostidagi boyliklarda emas, balki universitet auditoriyalari, texnopark laboratoriyalari va yosh ixtirochilarning qalbidagi umid uchunqlarida ko‘rmogda. Bu eng to‘g‘ri va uzoqni ko‘zlagan tarixiy qarordir. Zero, har qanday tabiiy boylik bir kun tugashi mumkin, ammo inson aqlining, bilim va ijodiy salohiyatining chegarasi yo‘q. Uchinchi Rennassans uzoqdagi orzu emas, balki har bir o‘quv xonasi, har bir AT markazi, har bir startapda hozirning o‘zida qurilayotgan haqiqatdir. Bugunning asosiy vazifasi ana shu cheksiz imkoniyatni ro‘yobga chiqarish uchun yoshlarga barcha sharoitni yaratib berish, ularni doimo qo‘llab-quvvatlashdir. Ishonchimiz komilki, bugungi shijoatli va vatanparvar avlod o‘z bilimi, iqtidori va Vatanga muhabbati bilan Uchinchi Rennassansning haqiqiy bunyodkorlariga aylanadi.

Shavkat TO‘RAYEV,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti prorektori,
Ortiq RO‘ZIBOYEV,
texnika fanlari nomzodi, dotsent

